

TARJIMADA SEMANTIK YONDASHUVNING O'RNI

Abduxakim ABDULAXATOVICH ARIPOV,

Andijon davlat chet tillar instituti erkin tadqiqotchisi

E-mail: aabdulhakim78@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida semantik yondashuvning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, arab tilining ko'p ma'nolilik (polisemiya) jihatidan boyligi tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik muammolar bilan bog'liq holda yoritiladi. Maqolada monosemantik va polisemantik so'zlarning tarjimadagi o'rni, ko'p ma'noli birliklarning kontekstga ko'ra ma'no torayishi va tarjimonning kontekstual ma'noni aniqlashdagi mas'uliyati ilmiy dalillar asosida ko'rsatib beriladi.

Arab tilidagi ayrim so'zlarning (masalan, كَفَرَ, أُسْبِوعُ) turli lug'atlardagi ma'no doiralari tahlil qilinib, tarjimalarda uchraydigan xatolar real misollar, jumladan Qur'oni karim oyatlari turli tafsir va ma'nolar tarjimalari orqali ochib beriladi. Shuningdek, terminologik va diniy matnlar tarjimasida sohaga oid bilimning zarurligi, tarjimonning semantik nozikliklarni chuqur anglashga doir salohiyati muhim omil sifatida baholanadi. Maqola yakunida lug'atchilik ishida so'zning barcha ma'no-semalarini qamrab olish lozimligi alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: ko'pma'nolilik (polisemiya), bir ma'nolilik (monosemiya), genetik ma'no, hosila ma'no, so'z shakli.

THE ROLE OF THE SEMANTIC APPROACH IN TRANSLATION

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations and practical significance of the semantic approach in translating from Arabic into Uzbek. In particular, it highlights the relationship between the richness of the Arabic language in terms of polysemy and the semantic difficulties that arise during translation. The study demonstrates, on a scholarly basis, the role of monosemous and polysemous

words in translation, the narrowing of meanings of polysemous units depending on context, and the translator's responsibility in determining contextual meaning.

The semantic ranges of certain Arabic words (such as *أسبوع* and *كَفَرَ*) are examined across various dictionaries, and translation errors are revealed through real examples, including different interpretations and translations of Qur'anic verses. The article also emphasizes the necessity of subject-matter knowledge when translating terminological and religious texts, as well as the importance of the translator's competence in understanding semantic subtleties. The conclusion stresses the need for comprehensive coverage of all semantic meanings of a word when compiling lexicographical entries.

Keywords: polysemy, monosemy, genetic meaning, derived meaning, word form.

РОЛЬ СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ПЕРЕВОДЕ

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы и практическое значение семантического подхода в процессе перевода с арабского языка на узбекский. В частности, освещается взаимосвязь между богатством арабского языка в аспекте многозначности (полисемии) и семантическими проблемами, возникающими при переводе. В статье на научной основе раскрывается роль моносемантических и полисемантических слов в переводе, сужение значения многозначных единиц под влиянием контекста, а также ответственность переводчика в определении контекстуального значения.

Анализируются семантические поля некоторых арабских слов (например, *أسبوع*, *كَفَرَ*) в различных словарях, раскрываются ошибки, встречающиеся в переводах, с использованием реальных примеров, включая разные толкования и переводы аятов Священного Корана. Кроме того, подчёркивается необходимость владения специальными знаниями при переводе терминологических и религиозных текстов, а также важность компетентности переводчика в глубоком понимании семантических нюансов. В

конце статьи особо отмечается необходимость охвата всех семантических значений слова при словарной фиксации.

Ключевые слова: полисемия, моносемия, генетическое значение, производное значение, форма слова.

Ma'lumki, tilshunoslikda so'zlar semantik xususiyatlariga ko'ra, bir ma'noli – monosemantik, ko'p ma'noli – polisemantik turlarga bo'linadi.

So'zning bir ma'noni anglatishi monosemiya deyiladi. Monosemiya so'zlarning faqat genetik ma'no asosida shakllanib, hosila ma'nolarni yuzaga keltirmasligi, ya'ni semantik taraqqiy etmasligidirⁱ.

Bir ma'noli so'zlar turkumiga atoqli otlar, oylar, hafta kunlari nomlari, muayyan turlar (hayvon, o'simlik, osmon jismlari va boshqalar) nomlari, u yoki bu sohaga oid atamalar kiradi. Ayrim tilshunoslar tilda umuman monosemantik so'zlar mavjudligiga shubha bilan qaraydilarⁱⁱ. Shunga qaramay, tillarning bir-biridan farqliligi va xususiyatidan kelib chiqqan holda monosemantik so'zlarning mavjudligini inkor etib bo'lmaydi.

Monosemantik so'zlarni bir tildan boshqasiga tarjima qilish unchalik ham katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Biroq so'z boyligining bir qismi ko'p ma'noli - polisemantik so'zlar turkumiga kiradi. Muayyan so'z shaklini turli ma'nolarga bog'lab ishlatish inson tilining o'ziga xos xususiyati sanaladi.

Tilshunos olim A.A.Reformatorskiyga ko'ra, ko'p ma'noli so'zlar muayyan kontekstda ma'no torayishiga uchrab, bir ma'noli so'zga aylanishi mumkin. Misol uchun, qayiq haqida so'z borarkan, "Burundan quyuqqa o't" (Переиди с носа на корму) jumlasida "burun" (нос), "quyuq" (корма) so'zlari ko'p ma'noli so'zlar bo'lishiga qaramasdan, bu kontekstda faqatgina bittadan ma'noni anglatmoqda va so'zlovchi ham, tinglovchi ham undan faqatgina qayiqning qismlarini tushunmoqdaⁱⁱⁱ.

Tarjima jarayonida ko'pincha polisemantik so'zlarning qaysi ma'nosi nazarda tutilganini aniqlash tarjimonning mahoratini aks ettiradi. Bunda jumlaning umumiy mazmuni – kontekstni e'tiborga olish zarur.

Arab tili soʻz birliklari soni jihatidan ham, soʻzlarning koʻp maʼnoliligi jihatidan ham dunyo tillari orasida yetakchi oʻrinlardan birini egallaydi. Masalan, al-Qomus lugʻatida عَجُور soʻzining 70 ta, دَوْر soʻzining 24 ta, بَرَد, دَخَلَ feʼllarining 17 tadan maʼnosi berilgan.

Polisemantik soʻzlarni tarjima qilishda kontekst bilan birgalikda tarjima qilinayotgan matn mansub boʻlgan sohadan ham xabardor boʻlish talab qilinadi.

Masalan, arab tilida أُسْبُوع soʻzi mavjud. Bu soʻz X.K.Baranovning “Большой арабско-русский словарь” soʻzligida faqatgina “неделя” (hafta) deb tarjima qilingan^{iv}. “An-Naim” lugʻatida esa “hafta” maʼnosidan tashqari, koʻchma maʼnoda qoʻllanishiga طَافَ بِالْبَيْتِ *(Haramni yetti marta tavof qilmoq)* jumlasida misol tariqasida keltirilgan^v. Keltirilgan misoldagi بِالْبَيْتِ – Baytullohni” soʻzi “Haramni” deb tarjima qilinib, chalkashlikka yoʻl qoʻyilgan^{vi} boʻlsa-da, أُسْبُوع soʻzining “yetti marta” maʼnosiga ham ega ekani qayd etib oʻtilgan.

Shu nuqtai nazaridan ushbu soʻz ishtirokidagi bir hadis tarjimasiga eʼtibor qaratsak.

عَنْ ابْنِ عُمَرَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ: "سَمِعْتُ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَقُولُ: "مَنْ طَافَ بِالْبَيْتِ أُسْبُوعًا لَا يَضَعُ قَدَمًا وَلَا يَرْفَعُ أُخْرَى إِلَّا حَطَّ اللَّهُ عَنْهُ بِهَا خَطِيئَةٌ وَكَتَبَ لَهُ بِهَا حَسَنَةً وَرَفَعَ لَهُ بِهَا دَرَجَةً".

“Ibn Umar roziyallohu anhu: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kimki baytni bir hafta tavof qilsa, (tavofda) bir qadamni qoʻymaydi va boshqasini koʻtarmaydi magar (qoʻysa va koʻtarsa) Alloh undan u (qoʻygan va koʻtargan har bir qadamiga) bir gunohni kechadi va u (qoʻygan va koʻtargan qadam) sababli u uchun hasana yozadi hamda u sababli uning darajasini koʻtaradi” deyayotganlarini” eshitdim” dedi^{vii}. Ushbu tarjima muallifi “مَنْ طَافَ بِالْبَيْتِ أُسْبُوعًا” iborasini “Kimki baytni bir hafta tavof qilsa” deb notoʻgʻri tarjima qilgan. Bunda tarjimon أُسْبُوع soʻzining boshqa maʼnolari bilan qiziqib oʻtirmasdan, xayolga eng birinchi kelgan koʻp qoʻlanuvchi dominant maʼnosini olib qoʻya qolgan.

“Al-Qomus” lugʻatida أُسْبُوع soʻzi maqolasi quyidagicha berilgan: 1. hafta; ابْنُ السُّنَنِ (oʻn toʻrt kechalik) toʻlin oy; هَافَا فِي بَحْرٍ hafta davomida; 2. كَابَانِي مِنَ الطَّوَّافِ Kaʼbani yetti marta tavof qilish; مَنِ طَافَ بِالْبَيْتِ أُسْبُوعًا فَهُوَ كَعَدَلٍ رَقَبَةٍ “Kimki Baytullohni yetti bor

tavof qilsa, bir qul ozod qilgandek bo'ladir" (had.)^{viii}. Matn Islom dinidagi maxsus ibodatlar turidan bo'lgan Ka'baning atrofini aylanib tavof qilishga oid. Tavof to'liq bo'lishi uchun yetti aylana bo'lishi kerak. Tarjimonning mana shu boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lishi, ya'ni matn aloqador bo'lgan soha bilan xabardor bo'lishi tarjimaning to'g'ri bo'lishini ta'minlaydi.

Yana bir misol. Qur'oni karimning Abasa (80) surasi 17-oyati (فَتِلَّ الْإِنْسَانُ مَا أَكْفَرَهُ) tarjimasini turli tarjima va tafsirlardan ko'rib chiqsak.

Oltinxon to'ra Sayyid Mahmud Taroziyning Qur'oni karim ma'nolari tarjimasida oyat ma'nosini "La'natg'a duchor bo'lsin inson, **naqadar noshukrdir**"^{ix} shaklida ko'ramiz.

Muhammadjon mullo Rustam o'g'li Hindistoniy esa ushbu oyat ma'nosini shunday tarjima qilgan: "Kofir odam la'natga giriftor bo'lsin. **U qanday ham noshukr banda ekan!**"^x.

Abdulaziz Mansur: "Halok bo'lgur inson, bunchalar kofir bo'lmasa!"^{xi}.

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf: "Insonga la'nat bo'lsin, **buncha ham kofir bo'ldi-ya!**"^{xii}.

Alouddin Mansur: "Halok bo'lgur inson-a! **Bunchalar kofir bo'lmasa!**"^{xiii}.

Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy: "Halok bo'lgur inson **buncha kufrga bormasa?!!**"^{xiv}.

Ko'rinib turibdiki, oyati karimadagi "مَا أَكْفَرَهُ" jumlasini yuqorida keltirilgan tarjimalarda turlicha ifodalangan. Arab tilida مَا أَفْعَلْ hamda أَفْعَلْ بِهِ vaznlari "ta'ajjub"ni ifodalash uchun ishlatilib, to'liq tuslanadigan, ma'nosi tafovutni qabul qiladigan, uch o'zakli, أَفْعَلْ vaznida sifat yasalmaydigan, bo'lishli hamda aniq nisbatli, to'liq tuslanadigan, mustaqil (tomm) fe'llardan olinadi^{xv}. Masalan, مَا أَجْمَلَ الْبُسْتَانِ! أَجْمَلَ بِالْبُسْتَانِ Bog' namuncha chiroyli! Bog' bunchalar chiroyli bo'lmasa!

"Al-Qomus" lug'atida كَفَرَ so'zining 4 ta asosiy va ikkita qo'shimcha ma'nosi keltirilgan:

1. Kofir bo'ldi; dinsiz bo'ldi; بِاللَّهِ ~ Allohga ishonmadi;

2. بِشَيْءٍ ~ 1) biror n.ga nonko‘rlik qildi, noshukrlik qildi; بِالْغَمَةِ / بِالْغَمَةِ ~ ne‘matga noshukur bo‘ldi; 2) biror n.dan voz kechdi, yuz o‘girdi; بِأُسْلُوبِ التَّكَبُّرِ ~ takabburlik uslubidan voz kechdi; 3) biror n.ni yolg‘onga chiqardi, unga ishonmadi; بِآيَاتِ اللَّهِ ~ Allohning oyatlari (eslatma va pandlari)ni yolg‘onga chiqardi;

3. الْجَهْلُ عَلَى عِلْمِهِ ~ biror n.ni yashirdi, bekitdi, ustini yopdi; شَيْئًا / عَلَيْهِ كُفْرًا ~ bilimsizlik uning ilmini yashirdi, to‘sib qoldi; فَوْقَ دَرَجَةٍ / دَرَجَةٌ بِتَوْبِهِ ~ sovuti ustidan kiyim kiydi, sovutini kiyim b-n yopdi; الرَّارِغُ الْيَذَرُ بِالْثَّرَابِ ~ dehqon urug‘ni tuproq b-n bekitdi;

4. مَتَاعَهُ ~ buyumlarini idishga soldi^{xvi}.

Taroziy va Hindistoniylar tafsirlarida 2-ma‘no: “noshukrlik qildi” fe‘li ma‘nosi ishlatilgan bo‘lsa, qolgan tafsir va ma‘nolar tarjimalarida 1-ma‘no: “kofir bo‘ldi, Allohga ishonmadi” fe‘li ma‘nosi ishlatilgan.

Mazkur surada ushbu (17-) oyatdan keyingi o‘n besh oyat davomida Alloh taolo insonni yaratishidan tortib dunyoga keltirishiyu bu dunyodagi yana ko‘plab ne‘matlarni zikr etadi. Bu kontekstdan kelib chiqilsa, Allohga imon keltirmagan insonning shuncha ne‘matlarga nonko‘rlik, noshukrlik qilgani anglashiladi va Taroziy va Hindistoniylar tarjimasini o‘rinliroq ekani ma‘lum bo‘ladi.

Lug‘at tuzishda, ya‘ni lug‘atga tartib berishda so‘zning barcha ma‘no-semalarini qamrab olish talab etiladi.

Хулоса қилиб айтганда, бир тилдан иккинчи тилга таржима қилишда семантик ёндашув ғоятда муҳим. Хусусан, араб тили ўзининг кўпмаънолилиги билан бошқа тиллардан ажралиб туради. Худди шунингдек, ўзбек тили ҳам бу борада араб тилидан қолишмайди. Араб тилидан ўзбек тилига таржима муваффақиятли чиқиши учун сўзларнинг семантик хусусиятларига алоҳида эътибор қаратиш талаб этилади.

ⁱ Mirtojiev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi. - T.: Mumtoz so‘z, 2010. – B 158.

ⁱⁱ Григоренко И.Н. Значения слов и их реализация. - Краснодар: КСЭИ, 2016. – С. 52.

ⁱⁱⁱ Реформаторский, А.А. Введение в языковедение. – Москва, 1996. С 60.

^{iv} Баранов, Х.К. Большой арабско-русский словарь. - Москва, 2006. Том I, С.344.

^v Nosirov O, Yusupov M. va b. An-Naim – arabcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent, 2003. – B 357.

^{vi} “Haram” – muqaddas masjid. Makkadagi Ka‘batulloh va u bilan bog‘liq majmua “Baytulloh” (Allohning uyi). Ibrohim alayhissalom o‘g‘illari Ismoil alayhissalom bilan Alloh taoloning amriga muvofiq hozirgi Makkai mukarrama shahri joylashgan o‘rinda qurgan Ka‘ba binosi. Islom dini muqaddaslashtirilganidan so‘ng berilgan nom. Qarang: Umarxo‘jaev M.E. Diniy atamalar va iboralar: ommabop qisqacha izohli lug‘at. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2016. – B. 203.

^{vii} <https://islom.uz/maqola/512> (Murojaat sanasi: 20.05.2025)

^{viii} Al-Qomus. Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at / [Matn] J. 2. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 896 b.

^{ix} السيد محمود بن السيد نذير الطرازي المدني. قرآن كريم مترجم ومحشى باللغة التركستانية. المدينة المنورة. ص 666.

^x Shayx Muhammadjon mullo Rustam o‘g‘li (Mavlaviy hoji Hindistoniy). Qur‘oni karim ma‘nolarining izohli tarjimas. – Toshkent, 2006. 912-b.

^{xi} Abdulaziz Mansur. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent, 2004. 585-b.

^{xii} Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur‘oni karim va o‘zbek tilidagi ma‘nolari tarjimas. Anqara, 2018. 587-b.

^{xiii} Alouddin Mansur. Qur‘oni karim. O‘zbekcha izohli tarjima. 711-b.

^{xiv} Shayx Usmonxon Tumurxon Samarqandiy. Tafsiri Irfon. 27-30-juzlar, VI jild. – Toshkent, 2019. 497-b.

^{xv} حنفي بك ناصف ومحمد بك دياب والشيخ مصطفى طموم وغيرهم. قواعد اللغة العربية. القاهرة، 2008. ص. 112.

^{xvi} Al-Qomus. Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at / [Matn] J. 4. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 62.